


## **Asosiy kapitalga investitsiyalar**

*yanvar-sentabr 2020- yil*

*Hisobot davrida 6940,1 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 39,3 % i, yoki 2729,9 mlrd. so'mi markazlashgan mablag'lar hisobidan, shuningdek 60,7 %, yoki 4210,2 mlrd. so'mi – markazlashmagan mablag'lar hisobidan moliyalashtirildi.*



### ***Asosiy kapitalga investitsiyalar***

*Hisobot davrida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan – 2729,9 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 39,3 % ini tashkil etib 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,6 % ga kamaydi. Jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 60,7 % i yoki 4210,2 mlrd. so‘mi markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirildi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga kamaydi.*

*Korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan 1985,7 mlrd. so‘m, jami investitsiyalarning 28,6 % ni, o‘shish sur‘ati 95,4 % ni tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan 546,1 mlrd. so‘m, umumiy hajmnan 7,9 % va o‘shish sur‘ati 29,4 % ga kamaydi.*


*Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 1988,7 mlrd. so‘m va 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 46,9 % ga ko‘paydi, jami investitsiyadagi ulushi 28,6 % ni tashkil etdi. Tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 742,4 mlrd. so‘m va jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,7 % ini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 17,8 % ga ko‘paydi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar - 157,1 mlrd. so‘m (2,3 % va o‘shish sur‘ati 25,9 % ga kamaydi), Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi 73,6 mlrd. so‘m (1,1 % va 22,5 % punktga kamaydi), Respublika byudjeti 596,5 mlrd. so‘m (8,6 % va 51,7 % ga kamaygan), Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi 71,1 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati 5,5 % ga ko‘paydi va ulushi 1,0 %) ni tashkil etdi. Kafolatlanmagan chet el kreditlariga- 779,0 mlrd. so‘m (ulushi 11,2 % va o‘shish sur‘ati 8,4 % ga ko‘paydi) investitsiyalar o‘zlashtirildi.*

**Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da**




- Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi
- Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
- Respublika byudjeti
- O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da**




**Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da**




- Korxonalar mablag'i
- Aholi mablag'lari
- Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da**



***Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm***




*Moliyalashtirish manbalari bo'yicha yo'qori o'sish sur'ati O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 146,9 % va bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari - 117,8 % hisobiga to'g'ri keldi.*

***Asosiy kapitalga investitsiyalar, tumanlar kesimida***

	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati</i>
<b><i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i></b>	<b>6940,1</b>	<b>86,2</b>
Nukus shahri	972,6	68,1
Amudaryo	200,2	100,3
Beruniy	252,4	126,0
Bo'zotov	80,0	957,8
Qorao'zak	170,3	53,3
Kegeyli	84,5	81,0
Qo'ng'iro't	888,3	76,6
Qonliko'l	192,5	175,4
Mo'ynoq	2062,1	176,6
Nukus	148,2	77,8
Taxiatosh	538,1	33,0
Taxtako'pir	83,8	142,8
To'rtko'l	420,0	75,1
Xo'jayli	141,3	55,7
Chimboy	153,0	97,0
Shumanoy	140,6	196,9
Ellikqal'a	412,2	101,2


*Eng yo'qori o'sish sur'ati Bo'zotov tumanida kuzatildi o'sish sur'ati 957,8 % ni, bu hisobot davrida chorvachilikni rivojlantirish va ijtimoiy obyektlar qurilishi bilan bog'liq, shuningdek, yuqori o'sish sur'atlari Shumanoy tumanida ham kuzatilmoqda. Bu 196,9 % ni tashkil etdi, ushbu tumanda to'qimachilik sanoatiga yangi quvvatlar yaratildi. Mo'ynoq tumanida-176,6 % va bu yerda tabiiy gazni qazib olishga chet el kreditlari o'zlashtirildi.*

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tumanlar kesimida ulushi, % da**




**Malumot uchun:** Umumiy hajmga nisbatan o'zlashtirilgan investitsiyalarning yo'qori ulushi Mo'ynoq tumaniga - **29,7 %**, bu kafolatlanmagan chet el kreditlari hisobidan tog'-kon sanoatiga o'zlashtirildi. Qo'ng'iro't tumani - **12,8 %**, bu chet el investitsiya va kreditlari hisobidan qishloq xo'jaligi va sanoatga jalb qilindi. Nukus shahriga – **14,0 %**, bu yerda yirik korxonalar va tashkilotlar hisobidan ijtimoiy soha obyektlarini yangi qurilishi va rekonstruksiyasiga investitsiyalar o'zlashtirildi.

***Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,  
ulushi % da***



*Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish montaj ishlariga 4321,9 mlrd. so'm o'zlashtirildi va jami investitsiyaning 62,3 % ni tashkil etdi. Asosiy vositalarga investitsiyalarning mashina va uskunalarni sotib olishga 2183,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan 43,2 %) va boshqa harajatlar – 434,7 mlrd. so'm (5,7 %) o'zlashtirildi.*

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab  
chiqarish tarkibi, ulushi % da**



Hisobot davrida asosiy fondlarga kiritilgan investitsiyalarning ko'p qismi yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar bo'lib, hajmi 4276,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va umumiy hajmining 61,6 % ni tashkil etdi. Mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik jihatdan qayta qurollantirishga 1305,3 mlrd. so'm o'zlashtirildi, va umumiy hajmining 18,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, 1358,8 mlrd. so'm boshqa sohalarga o'zlashtirildi va ulushi 19,6 % ni tashkil etdi.




***Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar***

	<i>ming. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>
<b><i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i></b>	<b>3638,9</b>	<b>84,9</b>
Nukus shahri	3028,1	67,1
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1001,4	98,7
Beruniy	1311,3	123,6
Bo'zatov	3700,6	953,7
Qorao'zak	3219,1	52,9
Kegeyli	1161,5	80,4
Qo'ng'iro't	6806,9	75,6
Qonliko'l	3759,3	172,9
Mo'ynoq	64439,9	173,9
Nukus	2935,5	76,4
Taxiatosh	7261,5	32,6
Taxtakopir	2070,2	141,1
To'rtko'l	1950,9	73,8
Xo'jayli	1146,9	55,0
Chimboy	1359,0	96,1
Shumanoy	2489,2	194,5
Ellikqal'a	2576,0	99,4


*Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori ko'rsatkichi Mo'ynoq tumanida qayd etildi – 64439,9 ming. so'm, hisobot davrida gaz qazib olishga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq. Taxiato'sh tumanida – 7261,5 ming. so'm, bu Taxiato'sh TESda yirik investitsiya loyihasi bilan bog'liq, Qo'ng'iro't tumanida aholi jon boshiga – 6806,9 ming so'm, bu tog'-kon sanoati va qayta ishlash sanoati tarmoqlariga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.*

***Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga  
investitsiyalar, mlrd. so'm***



## **Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**


**(jamiga nisbatan, % da)**



*Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi- 1244,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalarning 17,9 % i), tog'-kon sanoatiga- 2493,3 mlrd. so'm yoki 35,9 % shundan- 2377,5 mlrd. so'm, yoki 34,3 % i tabiiy gaz qazib olishga o'zlashtirilgan, qayta ishlash sanoatiga -725,8 mlrd.so'm (10,5 %), shundan boshqa nometall mahsulotlarini ishlab chiqarishga- 98,4 mlrd. so'm (1,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik ishlab chiqarishga- 104,2 mlrd. so'm (1,5 %), tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga- 284,7 mlrd. so'm (4,1 %),elektr energiyasi va gaz ta'minotiga- 500,4 mlrd. so'm (7,2 %), suv ta`minoti, kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga- 163,6 mlrd. so'm (2,4 %), qurilish- 126,8 mlrd. so'm (1,8 %), tashish va saqlash- 264,3 mlrd. so'm (3,8 %), ulgurji va chakana savdo , mototsikl va motorli transport vositalarini remontlash- 117,7 mlrd. so'm (1,7 %) axborot va aloqa- 58,9 mlrd. so'm (0,8 %), professional ilmiy va texnik faoliyat- 13,8 mlrd. so'm (0,2 %), ta`lim- 262,8 mlrd. so'm (3,8 %), davlat boshqaruvi va mudofaa- 155,6 mlrd. so'm (2,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari- 46,8 mlrd. so'm (0,7 %), moliya va sug'urta faoliyati- 18,3 mlrd. so'm (0,3 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar- 110,5 mlrd. so'm (1,6 %) san`at ko'ngil ochish va dam olish– 46,1 mlrd. so'm (0,7 %), turar-joy qurilishi- 536,5 mlrd. so'm (7,7 %) va boshqa faoliyat turlari- 54,9 mlrd. so'm (0,8 %).*

### ***Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar***

(jamiga nisbatan, foizda)



*Hisobot davrida Asosiy kapitalga uzlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 54,1 foizi tog'-kon sanoati faoliyat turiga to'g'ri keldi va 26,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyat turiga o'zlashtirildi.*

### **Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar**

mlrd. so'm



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

	<i>Jami xorijiy investitsiya va kreditlar</i>	<i>Shu jumladan:</i>		
		<i>To'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar</i>	<i>Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar</i>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2924,8</b>	<b>157,1</b>	<b>1988,7</b>	<b>779,0</b>
<i>Nukus sh.</i>	98,8	32,8	13,2	52,8
<i>Amudaryo</i>	81,0	4,0	41,5	35,5
<i>Beruniy</i>	74,3	-	44,3	30,0
<i>Bo'zatov</i>	19,8	-	-	19,8
<i>Qorao'zak</i>	39,6	2,5	0,4	36,7
<i>Kegeyli</i>	10,0	6,9	-	3,1
<i>Qo'ng'iro't</i>	371,8	72,1	0,9	298,8
<i>Qonliko'l</i>	9,1	2,2	0,3	6,6
<i>Mo'ynoq</i>	1256,9	7,0	1211,2	38,7
<i>Nukus</i>	36,9	6,5	0,5	29,9
<i>Taxiatosh</i>	332,0	0,8	274,0	57,2
<i>Taxtakop'ir</i>	16,0	-	-	16,0
<i>To'rtko'l</i>	199,8	2,7	172,0	25,1
<i>Xo'jayli</i>	23,4	-	-	23,4
<i>Chimboy</i>	55,2	16,8	0,1	38,3
<i>Shumanoy</i>	13,7	2,8	0,2	10,7
<i>Ellikqal'a</i>	286,5	-	230,1	56,4



## **QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI**

*Xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi- 782,1 mlrd. so'm (jami investitsiyalarning 26,7 % i), tog'-kon sanoatiga- 1581,9 mlrd. so'm yoki 54,1 % shundan- 1537,0 mlrd. so'm, yoki 52,5 % i tabiiy gaz qazib olishga o'zlashtirilgan, qayta ishlash sanoatiga -142,1 mlrd.so'm (4,9 %), shundan boshqa nometall mahsulotlarini ishlab chiqarishga- 18,2 mlrd. so'm (0,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik ishlab chiqarishga- 25,2 mlrd. so'm (0,9 %), tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga- 50,2 mlrd. so'm (1,7 %),elektr energiyasi va gaz ta'minotiga- 282,3 mlrd. so'm (9,7 %), suv ta'minoti, kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga- 11,2 mlrd. so'm (0,4 %), qurilish- 6,6 mlrd. so'm (0,2 %), tashish va saqlash- 15,6 mlrd. so'm (0,5 %), ulgurji va chakana savdo - 32,4 mlrd. so'm (1,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari- 14,7 mlrd. so'm (0,5 %) axborot va aloqa- 29,5 mlrd. so'm (1,0 %), boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish – 6,8 mlrd. so'm (0,2 %) ,talim -5,7 mlrd. so'm (0,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar- 10,5 mlrd. so'm (0,4 %) va boshqa faoliyat turlari -3,4 mlrd. so'm (0,1 %).*

**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**Aloqa telefoni: (61) 224-92-14**

**(61)222-75-91**